

**TOG'AY MURODNING"OT KISHNAGAN OQSHOM" QISSASIDAGI
SO'ZLARINING MAVZUVIY GURUHLARI**

Nabizada Zainullah

Magistranti Nizomiy nomidagi TDPU "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi

Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" qissasida "O'zbek tilining izohli lug'ati" ga kirmagan bir qancha so'zlari borki, bu shevamiz boyligi. Yozuvchining asl maqsadi tilimizda unutilib borayotgan so'zlarni asrash, ularga sayqal berish, tilimizning boyligini xalqimizga namoyon qilish, aniqrog'i uqtirish. Asar 1979 yilda nashr qilingan bo'lsa ham, oradan salkam 40 yildan oshsada ko'pchilik so'zlari (shevaga xos) hali ham xalqimiz tilida qo'llanilib kelmoqda. Afsuski, ko'p so'zlarimiz iste'moldan qolganligi alamli.

Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" qissaga O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad shunday degan edilar.-"Dom"da yashab umrini o'tkazgan shaharliklarni o'yladim. Inson bolasining uzog'ini yaqin, mushkulini oson qilgan bu jonivorni faqat sirkda, kinoda ko'rgan shaharlik ukalarimizga adibning bu so'zlari qanchalik ta'sir qilishini bilaman. Shahar bolalarining tabiatdan, jonivorlardan qanchalik uzoqlashib qolganliklariga achinib ketaman. Qissadagi bosh qahramon Ziyodulla kal chavandoz, elning koriga belbog'lab qo'yqo'zisini boquvchi cho'pon, xalq og'zaki ijodiyotidan xabardor o'lanchi, baxshi, do'mbirachi, jaydari inson. Tarlon tulpori bilan milliy ko'pkari o'yinlari ishqibozi. Uning niyati otlarni ko'paytirish, yilqichilik tarmog'ini rivojlantirish, ot zotlarini saqlab qolishdan iborat. Ko'pkari o'yinlarida Ziyodolla chavandoz o'ta halol inson. Yilqichilik — chorvachilik tarmog'i. Otlarni urchitish, ko'paytirish, zotini takomillashtirish, naslchilik ishlari bilan shug'ullanadi. Yilqichilik ishchi hayvon tariqasida arzon, samarali energiya manbai. Yilqichilik xilma-xil qishloq xo'jaligi ishlarida, sanoat korxonalarida, geologlarning razvedkachilik-qidiruv ishlarida, turli xil ilmiy ekspeditsiya tarkibida, chegara qo'shinlari va qo'riqchilik xizmatida noyob otulov vazifasini o'taydi.

O'zbek adabiyotida novator yozuvchi deya sharaflangan ulug' adiblarimizdan biri bu - yangilik yaratuvchi ijodkor Tog'ay Muroddir. Tog'ay Murodning qay bir asarini, qissalarini o'qisak ulardagi har bir so'zda o'zbekona milliylik o'z ifodasini topgan. Yozuvchining har bir asarini o'qisak qadriyat aslida nima, milliylik deganda biz nimani tushunmog'imiz kerakligini har bir asarini o'qib unga javob topa olamiz. Tog'ay Murodning asarlarini o'qigan har bir kitobxon uni huddi ko'z o'ngida namoyon bo'layotgandek jonli his eta oladi. Buning sababi, ya'ni yozuvchining har bir asari o'qishli va o'zining muhlislariga egaligiga sabab, yozuvchi har bir asarida yoritib bergan voqealarni avval o'z boshidan o'tkazgan va his etgan. Shuning uchun ham yozuvchining har bir asari haqiqiy tirik asarlardir. Yozuvchining asarlari haqiqiy chinakam yetuk asar bo'lishining sababi bu voqealarni yozuvchi o'z boshidan kechirgan va

uni asar qilib qog'ozga tushirgan. Inson o'zi his qila olmagan voqeani o'zgaga his qildir olmaydi.

Yozuvchi bu asarlarni o'zi his etgan va o'zgalarga ham tushunarli bo'lishiga muvaffaq bo'lgan. Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" asarini yozishdan oldin Surxon hayoti haqida o'z tajribalariga tayangan, kerak bo'lsa ot boqib unga mehr bergan. Shuning natijasida chinakam hayotiy asar dunyoga kelgan. Har bir yaratgan asarlarida avval o'zi ijod mahsuliga aylangan va yangi bir asarlar paydo bo'lgan. Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" asarida asl o'zbekning sodda va samimiyligi Ziyodulla chavandoz obrazi orqali yoritib berilgan. Asar oxirida Ziyodulla chavandozga insoninsonga xiyonat qiladi, ammo shunday vaziyatda ham Tarlon o'z egasiga sodiq do'stligicha qoladi. Tog'ay Murodning har bir qissasida millatning yaqin yuz yillikdagi fojiasini fosh qilib beradi, uning asarlarida madaniyatlar to'qnashadi, zulmning bor qiyofasi ochiladi, xo'rlangan va xorlangan ruh, milliy madaniyat ohanglari tirilib millatga qaytariladi. Millatga har bir qaytarilgan ruh kitobxonga "yuqadi". Shu jumaladan, "Ot kishnagan oqshom" asarida ham sevgi, yurt, millat tushunchalari qoliplangan so'zlar shaklida emas, tabiiy, oddiy, kamtarona, ming yillar mobaynida shakllangan madaniyat qanday bo'lsa, sof tuyg'ular ham shunday "tiriltiriladi" Yozganlari o'quvchi qalbiga kiradi. Qishloqning oddiy, o'qimagan, chapani insonining ham ko'ksida urib turgan, ulkan yuragi "milliy ruhni" singdiradi. Asarni o'qiganimizda Surxon vodiysining o'ziga xos nafasini sezgandek bo'lamiz, mehnatsevar, kamtar va tanti chorvadorlar, bog'bonlarga nisbatan dilimizda samimiy mehr uyg'onadi. Bu sodda, beg'ubor insonlarning turmush tarzi qanchalik oddiy bo'lmasin, kitobxon e'tiborini tortadi. Qissa "Alpomish" dostoni an'analarini eslatadigan xalqchil ruh bilan sug'orilgan. Nafaqat bu doston, qissada butun xalq og'zaki ijodiga aloqador uslub aeziladi. Tog'ay Murodning o'zi ham Alpomish va Barchinlarni bergan go'zal vodiylar, bepoyon yaylovlarda o'sganligi uning so'z boyliklaridan, yozuvchilik uslubi va o'ziga xos ovozidan sezilib turadi.

Qissaning bosh qahramoni Ziyodulla oddiy bir cho'pon. Uning o'z oti Tarlonga bo'lgan mehri – insonning tabiatga qo'ygan mehriday sof. Tarlon tabiat timsoli bo'lgani uchun ham yozuvchi uni yorqin bir obraz darajasiga ko'tarib tasvirlaydi.

Birinchi qissaning qahramoni Ziyodulla o'zi yashayotgan joydagi ikkiyuzlamachi va riyokor odamlarga qarshi dadil kurashadi.

U hatto o'zidagi jismoniy nuqsonga qarshi isyon ko'taradi, "kal" degan malomatni ma'naviy ustunlik – mohir chavandozlik shuhrati bilan yengib o'tadi. Vaholanki, jamiyatdagi munofiqlikni yengishga bir kishining kuchi yetmasa-da, kurash yo'lini tanlaganlar kamdan kam topiladi. Ziyodulla chavandoz aynan shunday, qishloqning sodda, chapani insoni! Tog'ay Murodning barcha asarlarida shevaga oid so'zlar qo'llansa-da, aynan dialektizm qahramon xarakterini ochib berishda, uning ruhiy pozitsiyasini belgilashda aksiy rolni o'ynaydi. Aynan qissada Ziyodulla chavandozning chapani nutqi, Surxon vohasidan ko'pkari-yu, dala -

dashtning “hidi”ni olib keladi. Yozuvchining yana bir uslubi ko‘zga tashlanadi: uslubda qisqalik! Takrorlar! Qisqalik va takror inson tuyg‘ularini to‘la darajada kitobxonga yetkazadi. Aynan Tog‘ay Murod asarlaridagina mana shu shakllar ko‘p uchraydi. Shevaga xos so‘zlar alohida ohang va musiqiylikni shakllantirib bir umumiy kuydek jaranglaydi. Qissada asl o‘zbekning sodda va samimiyligini inson bo‘lishi eng go‘zal ifodalar bilan ko‘rsatilgan. Hozirgi kunda ham (Tog‘ay Murodni) zamonasida ham do‘st do‘stga emas, hatto, aka -ukaga, opa-singilga, farzand ota-onaga vafo qilmayapti. Lekin Ziyodulla kal Tarlonga shunchalik mehr berib, ardoqlagani va hayvon bo‘la turib Tarlon ham unga o‘zidan-da ortiq sadoqat ko‘rsatolgani, eng og‘ir damda- inson insonga xiyonat qilganda ham o‘sha sadoqatiga, do‘stligiga sodiq qololgani ham xavasli ham alamli.

Biz hayotdan doim eng yaxshi, eng pokiza tuhfalarni kutamiz. Lekin doim unaqa bo‘lmaydi va insonni baxtsizligiga, fojeasiga sabab inson bo‘laveradi, bo‘laveradi... Tog‘ay Murod ana shu fojeani eng mukammal bo‘yoqlarda aks ettirgan. Tog‘ay Murod - o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rni va so‘ziga ega bo‘lgan, adabiyotga zamonaviy, xalqchil uslubni kiritgan yozuvchidir. “Ot kishnagan oqshom”, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”, “Oydinda yurgan odamlar” kabi asarlari bilan tanilgan Tog‘ay Murod o‘zbek adabiyotiga milliylik ruhini qaytargan yozuvchilardan hisoblanadi. Aynan u o‘zbek Sovet adabiyoti qolipini parchalagan, adabiyot ruhini va matnni milliylikka qaytargan yozuvchi sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xolmurodov A. Yozuvchining xarakter yaratish mahorati. // «O‘zbek tili va adabiyoti». 2003. 5-son.
2. Sharafiddinov O. Adabiyot, tanqid va yangi tafakkur. // «O‘zbek adabiyoti va san’ati». 2001 yil. 19 oktyabr.
3. Tog‘ay Murod. «Otamdan qolgan dalalar». Toshkent. «Sharq», 1998.
4. Tog‘ay Murod. «Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi». Toshkent. «Sharq», 2001.